



**Journal of**  
**NATURAL SCIENCE**

<http://natscience.jspi.uz>

№5/3(2021)

biology chemistry geography



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI  
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI  
TABIIY FANLAR FAKULTETI**

*dotsenti, kimyo fanlari nomzodi*

**DAMINOV G‘ULOM NAZIRQULOVICH**

*tavalludining 60 yilligiga bag‘ishlangan*

onlayn konferensiya materiallari



**Jizzax-2021**

<u>ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ</u>	<u>ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ</u>
<p><b>Бош муҳаррир</b> – У.О.Худанов т.ф.н., доц.</p> <p><b>Бош муҳаррир ёрдамчиси</b>-Д.К.Мурадова, PhD, доц.</p> <p><b>Масъул котиб</b>- Д.К.Мурадова</p>	<ol style="list-style-type: none"><li>1. Худанов У.О. – ЖДПИ Табиий фанлар факултети декани, т.ф.н., доц.</li><li>2. Шылова О.А.-д.х.н., профессор Института химии силикатов им. И.В. Гребенщикова Российской академии наук (ИХС РАН)</li><li>3. Маркевич М.И.-ф.ф.д. проф Беларусия ФА</li><li>4. Elbert de Josselin de Jong- профессор, Niderlandiya</li><li>5. Кодиров Т- ТТЕСИ к.ф.д, профессор</li><li>6. Абдурахмонов Э – СамДУ к.ф.д., профессор</li><li>7. Сманова З.А,-ЎзМУ к.ф.д., профессор</li><li>8. Султонов М-ЖДПИ к.ф.д, доц</li></ol>
<p><b>Муассис</b>-Жиззах давлат педагогика институти</p>	<ol style="list-style-type: none"><li>9. Яхшиева З- ЖДПИ к.ф.д, проф.в.б.</li><li>10. Рахмонкулов У- ЖДПИ б.ф.д., проф.</li><li>11. Мавлонов Х- ЖДПИ б.ф.д., проф</li><li>12. Муродов К-СамДУ к.ф.н., доц.</li><li>13. Абдурахмонов Ғ- ЎзМУ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц</li><li>14. Хакимов К – ЖДПИ г.ф.н., доц.</li><li>15. Азимова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология бўйича) (PhD), доц</li></ol>
<p>Журнал 4 марта чиқарилади (хар чоракда)</p>	<ol style="list-style-type: none"><li>16. Юнусова Зебо – ЖДПИ к.ф.н., доц.</li><li>17. Гудалов М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (география фанлари бўйича) (PhD)</li></ol>
<p>Журналда чоп этилган маълумотлар аниқлиги ва тўғрилиги учун муаллифлар масъул</p>	<ol style="list-style-type: none"><li>18. Мухаммедов О- ЖДПИ г.ф.н., доц</li><li>19. Хамраева Н- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология фанлари бўйича) (PhD)</li></ol>
<p>Журналдан кўчириб босилганда манбаа аниқ кўрсатилиши шарт</p>	<ol style="list-style-type: none"><li>20. Рашидова К- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц</li><li>21. Мурадова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD), доц</li><li>22. Инатова М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD)</li></ol>

Жиззах давлат педагогика институти Табиий фанлар факултети

Табиий фанлар-Journal of Natural Science-электрон журнали

[/http://www.natscience.jspi.uz](http://www.natscience.jspi.uz)

**JIZZAX VILOYATI ZOMIN TUMANIDA TOMCHILATIB SUĞORISH  
BÓYICHA OLIB BORILAYOTGAN ISHAR**

*Usmonqulova Shoxsanam Boyqul qizi-talaba*

**Jizzax davlat pedagogika instituti**

Telefon: +998932940740

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada tomchilatib suğorish texnologiyasining afzalliklari va ahamiyati, Jizzax Viloyati Zomin tumanida tomchilatib suğorish texnologiyalarini qóllash bóyicha olib borilayotgan ishlar tógrisida sóz yuritiladi.

**Kalit soʻzlar:** suv tanqisligi, chuchuk suv sarfi, suvni tejavchi texnologiyalar, tomchilatib suğorish.

Bugungi kunda butun dunyo bóyicha chuchuk suv tanqisligi muammosi va uning oldini olish dolzarb mavzulardan biri bólib kelmoqda. Sónngi yillarda dunyoning bir qator mamlakatlarida chuchuk suv yetishmovchiligi kuzatilmoqda. Xususan Avstraliya va Osiyoda (Sharqiy, Oʻrta, Shimoliy), Meksikaning shimoli-sharqida, Chilida, Argentinada va deyarli butun Afrikada ichimlik suvi taʼminoti bilan bogʻliq muammolar mavjud. Umuman olganda, dunyoning 80 mamlakatida suv tanqisligi sezilmoqda.[1]

Oxirgi 10 yilda Oʻzbekistonda suv hajmi 12 foizga, 2020-yilda esa 2019-yilgiga nisbatan 15 foizga kamaygan. Egatlab sugʻorish oqibatida yiliga qariyb 5-6 milliard kub metr yoki 20 foiz suv dalada behuda sarflanmoqda.[2]

Tahlillarga nazar soladigan boʻlsak, 1960-2014 yillardagi chuchuk suv isteʼmolini baholash koʻrsatkichlariga koʻra, jami chuchuk suv sarfining 70% qishloq xoʻjaligi va chorvachilik sektorlari hissasiga toʻgʻri kelgan. Shundan qishloq xoʻjaligi yerlarining 20% sugʻoriladigan yerlar boʻlib, bu yerlarda jami oziq-ovqat mahsuloti hajmining 40% ishlab chiqarilgan. [Nicoleta, 2020].

Butun jahon suv instituti hisob-kitoblarga koʻra, 2025 yilga kelib dunyoda taxminan 3,5 mlrd. aholi suv tanqisligi muammosiga duch kelishi mumkin. Xususan, rivojlanayotgan davlatlarda tabiiy resurslarni boshqarishning mukammal strategiyasi va siyosatining amalda ishlamasligi hisobiga bu koʻrsatkich 1,2-1,8 mln. kishiga yetadi. 2080 yilga borib esa ekinlarni sugʻorish samaradorligini oshishiga qaramasdan, global iqlim, ob-havo, yogʻingarchilik va oʻsimliklar vegetatsiya davrining oʻzgarib ketishi sababli chuchuk suvga boʻlgan talab 25%ga ortishi prognoz qilinmoqda [Gorgios, 2020].

Hozirgi kunda butun dunyoda 17 ta davlat “oʻta yuqori” darajada suv tanqisligiga uchragan mamlakatlar hisoblanadi. Oʻzbekiston mazkur koʻrsatkich boʻyicha 164 ta davlat orasida 25 – oʻrinda turadi (beshlik shkalada 2-darajada),



ya'ni “yuqori” darajada suv tanqisligiga uchragan davlatlar qatoriga kiradi. [Hofste, 2019; Nicoleta, 2020].[3]

Yurorida kórsatib ótilgan ma'lumotlarga asoslangan holatda hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri har sohada suvni tejash va undan oqilona foydalanish zaruriyati mavjudligini kórsatmoqda. Shu jumladan qishloq xójaligida ham suvni tejoychi texnologiyalarni joriy etish va ulardan samarali foydalanish bugungi kun talabi hisoblanadi.

Dunyo mamlakatlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, Isroilda sug'oriladigan maydonlar 100 foiz suvni tejoychi texnologiyalarga o'tkazilgan. AQSHda bu ko'rsatkich 38,2 foizni, Misrda 36 foizni, Qozog'istonda 14 foizni, Turkiyada 12 foizni, Xitoy Xalq Respublikasida 11 foizni tashkil etadi.

2020-yil yakuniga kelib O'zbekistonda sug'oriladigan yerlarning 7 foizida, ya'ni 284 ming gektar maydonda suvni tejoychi texnologiyalar joriy etildi. Shundan tomchilatib sug'orish – 114 ming gektar, yomg'irlatib sug'orish – 3 ming gektar, diskret sug'orish (pulsar) – 4 ming gektar hamda egiluvchan quvurlar yordamida sug'orish 163 ming gektarni tashkil etadi.[4]

Bugungi kunda yurtimizda qishloq xójaligida suvni tejoychi texnologiyalardan- tomchilatib suqorish texnologiyasidan keng qòllanilmoqda. Bunga sabab ushbu texnologiya yordamida ekinlarni suqorish jarayonida suv sarfi miqdorini kamaytirish bilan birgalikda ósimliklar ildiz qatlamini suv bilan bir xilda ta'minlash imkoni yaratiladi. Shu bilan birga dalaning ekin joylashgan qismlarini bir xilda namlik bilan ta'minlash, tuproqning ortiqcha namlanishini oldini olish mumkin. Ekinlarni suqorishda ularni suvga bòlgan ehtiyojidan kelib chiqqan holatda suv bilan ta'minlanadi va suv bilan qóshib ógítlash ishlarini ham amalga oshirish mumkin. Tuproqning doimiy suv bilan ta'minlab turilishi natijasida tuproq qatlamlari qotib qolmaydi va unga qóshimcha qól mehnati yordamida ishlov berishga ehtiyoj kamayadi. Ekinlarning bir xilda va me'yorida suqorilishi ularni qurib qolishdan yoki ortiqcha namgarchilik oqibatida ildizi chirib ketishidan asraydi. Suv bilan oziq moddalar va qóshimcha ógítlarni qóshib yuborilishi ham ósimliklarni normada ógítlash imkonini beradi. Bu esa óz navbatida ósimlik hosildorligini yanada oshiradi. Kuzatuvlarga qaraganda bu jarayonda ósimlik hosildorligi 1,8 dan 3,5 martagacha oshishi mumkin.

Mavsum davomida har gektar maydon hisobiga 50–60 l atrofida yonilg'i-moylash mahsulotlari tejaladi. Yil davomida beriladigan o'g'itlar uchun xarajatlar tomchilatib sug'orilganda 30 foizga kamayadi, vegetatsiya davrida beriladigan o'g'itlar uchun xarajatlar esa 50 foizgacha kamayadi. Ekinning o'g'itni o'zlashtirishi 90 foizdan yuqori bo'ladi. Tuprog'i eroziyaga moyil yengil tuproqli,

yer yuzasi notekis bo‘lgan adir maydonlarida ham ekinlarni tomchilatib sug‘orish tizimlaridan foydalanish iqtisodiy jihatdan yaxshi samara beradi.[4]

Zomin tumanining umumiy yer maydoni 266 349 gektar bo‘lib shundan 17 155 gektar suvli, 40 047 gektar lalmi, 118 874 gektar yaylov va 56 608 gektar o‘rmonzorlar mavjud. Tumanda 1070 ta fermer xo‘jaligi va MCHJlar mavjud.

O‘z.Res.Prezidentining 2020-yil 11-dekabrdagi PQ-4919-sonli qaroriga binoan tumanda 2021-yilga 52 ta su‘bektda jami 3606 gektar shundan 2455 gektar bog‘, 1151 gektar tokzorlarni tomchilatib sug‘orish texnologiyasi joriy qilish rejalashtirilgan bo‘lib, 52 sub'yektlarda pudratchi tashkilotlar bilan fermer xo‘jaliklar o‘rtasida shartnomalalar rasmiylashtirish ishlari yakunlangan.

Ushbu 3606 gektar maydonlaridan, tomchilatib sug‘orish texnologiyalarini joriy etish uchun 1399 gektarga 13 ta subyektlarda qurilish ishlari amalga oshirilmoqda. 1379 gektar yoki 76 foiz maydonga yetadigan 37 ta xovuz geomembranalar bilan qoplangan, 1199 gektarga yoki 66 foizga yetadigan maydonlarga 20 ta nasos va filtrlar o‘rnatilgan, 1134 gektarda yoki 62 foizida markaziy quvurlar montaj qilingan, 1134 gektarda yoki 62 foizida tomizg‘ichli shlanglar montaj qilib, jami 1134 gektarda qurilish ishlari to‘liq yakuniga yetkazilgan.

Bugungi kun xolatiga 1548 gektar tomchilatib sug‘orish ishlari amalga oshirilmoqda shundan; 950 gektar tomchilatib sug‘orish ishlari to‘liq yakunlangan. 598 gektar tomchilatib sug‘orish ishlari amalga oshirilmoqda.

2021-yil hisobiga "EZER FIDANCILIK" tashkiloti bilan 2 ta fermer xo‘jaligi tomonidan shartnomalar tuzilib, 580 gektar maydonda;

"MARKAZ-4 STROY" MCHJ tashkiloti tomonidan 1 ta fermer xo‘jaligida 250 gektar maydonda;

"BRAVALM" MCHJ tashkiloti tomonidan 1 ta fermer xo‘jali tomonidan 500 gektar maydonda;

"DUAK SULAMA GROUP" MCHJ pudratchi tashkiloti tomonidan 1 ta fermer xo‘jaligi tomonidan 36 gektar maydonda;

"GREEN AGRO" MCHJ tomonidan 1 ta fermer xo‘jaligi tomonidan 500 gektar maydonda tomchilatib sug‘orish texnologiyasini joriy qilish bo‘yicha shartnomalar tuzilgan va to‘liq tomchilab sug‘orish joriy qilingan.

Zomin tumanidagi, “Jilg‘asi soy shabadasi” fermer xo‘jaligi tomonidan 10 gektar maydonda tomchilatib sug‘orish texnologiyasini joriy qilish hisobiga gektariga 1000 sentnerdan, jami 1000 tonna piyoz yetishtirilgan.

No	Pudratchi tashkilot	Fermer xójaligi soni	Maydon òlchami (gektar)
1	"EZER FIDANCILIK"	2	580
2	"MARKAZ-4 STROY" MCHJ	1	250
3	"BRAVALM" MCHJ	1	500
4	"DUAK SULAMA GROUP" MCHJ	1	36
5	"GREEN AGRO" MCHJ	1	500

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi kunda Zomin tumanida suv tejoychi texnologiyalarni, xususan, tomchilatib suğorish texnologiyalarini qóllash va ulardan samarali foydalanish orqali qishloq xójaligida chuchuk suv sarfi miqdorini kamaytirish, ichimlik suvidan oqilona foydalanish va shu bilan bir qatorda ósimliklar hosildorligini yanada oshirishga qaratilgan bir qator chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Yaqin yillar ichida ushbu suv tejoychi texnologiyalardan foydalaniladigan maydonlarni yanada kengaytirish va undan iqtisodiy va xójalik ahamiyatidagi foydalarni olish yurtimizda qishloq xójaligida yanada ulkan yutuqlarga ega bòlishimizga imkon yaratadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. <https://uz.petmypet.ru/2399-fresh-water-problem.html>
2. <https://daryo.uz/>
3. <https://review.uz/uz/post/ozbekistondagi-chol-hududlar-suv-tanqisligining-oldini-olish-uchun-olib-borilgan-tadqiqotlar>
4. <https://water.gov.uz/uz>
5. <https://asienda-ru.turbopages.org/asienda.ru/s/sovety-sadovodam-i-ogorodnikam/kapelnyj-poliv-plyusy-i-minusy/>